



UDK: 347.9:340.134

Nasirjan JO‘RABOYEV,  
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti  
E-mail: juraboyevnosir4@gmail.com

Tarix fanlari doktori D.Abdullayev taqrizi asosida

### O‘ZBEKISTONDA QONUN USTUVORLIGINI TA‘MINLASHNING NORMATIV-HUQUQIY VA TASHKILIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada qonun ustuvorligi demokratik va huquqiy davlatning asosiy prinsipi ekanligi, qonun ustuvorligini ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishdagi o‘rni, qonun ustuvorligining mohiyati, qonuniylik va qonun ustuvorligini ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari, har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi Konstitutsiya hamda qonun ustuvorligi ta‘minlanishi bilan bevosita bog‘liq ekanligi, qonun ustuvorligini ta‘minlashning iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy-axloqiy, ruhiy kafolatlari hamda davlat boshqaruvida qonuniylikni ta‘minlash va bu sohani tarkibiy jihatdan isloh qilish kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, qonun ustuvorligi, huquqiy davlat, strategiya, qonuniylik, huquqiy me‘yor, kodeks, Konstitutsiyaviy sud, kafolat, reyting, taraqqiyot, islohot.

### НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ И ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЕРХОВЕНСТВА ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация

В статье указано, что верховенство права является основным принципом демократического и правового государства, роль правового государства в регулировании социально-экономических отношений, сущность правового государства, организационно-правовые основы, обеспечения легитимности и верховенства закона, эффекта любых демократических реформ, главной гарантией мира и развития является Конституция и что она напрямую связана с обеспечением верховенства закона, экономической, политической, морально-этической, духовные гарантии верховенства закона и обеспечения легитимности государственного управления и освещены такие вопросы, как структурная реформа этого сектора.

**Ключевые слова:** Конституция, верховенство права, верховенство права, стратегия, законность, правовая норма, кодекс, Конституционный суд, гарантия, рейтинг, развитие, реформа.

### LEGAL AND ORGANIZATIONAL FRAMEWORK FOR ENSURING THE RULE OF LAW IN UZBEKISTAN

Annotation

The article discusses the rule of law as a fundamental principle of a democratic and legal state, the role of the rule of law in regulating socioeconomic relations, the essence of the rule of law, the organizational and legal foundations for ensuring legitimacy and the rule of law, and the effectiveness of any democratic reforms. The Constitution is the primary guarantee of peace and development, and is directly linked to ensuring the rule of law, economic, political, moral, ethical, and spiritual guarantees of the rule of law, and the legitimacy of public administration. Issues such as structural reform of this sector are also discussed.

**Key words:** Constitution, rule of law, strategy, legality, legal norm, code, Constitutional Court, guarantee, rating, development, reform.

**Kirish.** Qonun ustuvorligi demokratik va huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat‘iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo‘jalik yurituvchi va ijtimoiy-siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas. Zero, qonun oldida hamma barobardir.

Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq va normalarni buzganligi uchun javobgar bo‘ladi. Demak, demokratik jamiyatning eng muhim belgilaridan biri – bu qonun ustuvorligini, jamiyat a‘zolarining qonun oldida tengligini ta‘minlanganligidir. Qonun ustuvorligi – uning majburiy ijrosi jamoatchilik nazorati orqali ta‘minlanadi.

Qonun ustuvorligining mohiyati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bob, 15 va 16-

moddalarida belgilab qo‘yilgan. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” [1].

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III bobi «Konstitutsiya va qonunning ustunligi» deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning Asosiy prinsiplar bo‘limida joylashgan [2]. Nazariyadan ma‘lumki, prinsip deganda rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar Konstitutsiyaning boshqa bo‘limlari o‘rtasida qandaydir tushunmovchilik kelib chiqadigan bo‘lsa, masala nazariyaga ko‘ra Asosiy prinsiplar asosida hal qilinishi kerak. Shu ma‘noda, qonun ustuvorligining Asosiy prinsiplar bo‘limida joylashtirilganligi mamlakatimizda mazkur prinsipga alohida e‘tibor berilganidan dalolatdir.

Konstitutsiyaning mazkur bobidagi hamda boshqa normalarida mustahkamlangan qoidalarini tahlil qilish quyidagi fikrlarni keltirib chiqaradi: birinchidan, O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi; ikkinchidan, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslari, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar; uchinchidan, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

Bundan tashqari, mamlakatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari ham yaratilgan. Avvalo, bu O'zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanishi, qonunlarning bajarilishi ustidan parlament, jamoatchilik va idoraviy hamda adliya organlarining nazorati o'rnatilganligida o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, 2017–2021 yillarda O'zbekistonni yanada rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida esa joriy yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha muhim vazifalar belgilandi. Undagi g'oya va tashabbuslar xalqimiz tomonidan ko'tarinki ruhda kutib olindi. Zero, Taraqqiyot strategiyasida ko'tarilgan masalalarni amalga oshirish mamlakatimizni yanada rivojlantirish, belgilangan keng qamrovli va hayotbaxsh vazifalarni ro'yogga chiqarishning muhim bosqichi bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Taraqqiyot strategiyasida qonun ustuvorligini ta'minlash va uning huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy asoslarini yanada kuchaytirishga qaratilgan ilg'or g'oyalar ilgari surildi. Zero, so'nggi yillar davomida aynan sud-huquq sohasini isloh etish va qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida yuzlab farmon va qarorlar qabul qilinganligi ushbu yo'nalishdagi ishlar ko'lamini nechog'lik kengligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda, qonun ustuvorligi nima va u qanday ta'minlanadi, degan savolga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi davlat va uning organlari, mansabdor shaxslar, barcha nodavlat-notijorat tashkilotlari va fuqarolarning me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq faoliyat olib borishini anglatadi. Mazkur talablarga to'liq rioya etish mamlakatda adolat va tenglik, taraqqiyot va barqarorlik, tinchlik va bunyodkorlik ruhi hukm surishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, "Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir".

Dunyodagi barcha demokratik davlatlarda qonun ustuvorligi jamiyat va davlat hayotining bosh tamoyiliga aylangan. Qonun ustuvorligi tamoyilining bunday tatanasi – insoniyatning ko'p asrlik rivoji, izlanishi hamda taraqqiyot tajribalari, siyosiy va huquqiy fikr takomilining natijasidir. Binobarin, Yangi O'zbekistonni barpo etishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash davlatimizni rivojlantirishning bosh mezonini sifatida belgilab olingan.

Qonun ustuvorligi – bu sodda qilib aytganda, qonunlarga rioya etishni anglatadi. Mazkur qarash har qanday rivojlangan davlatning poydevorini tashkil etadi. Bobokalomiz buyuk Sohibqiron Amir Temur: "Saltanatim martabasini to'ra va tuzuklar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi", – deb o'z davlatini qat'iy qoidalar, qonunlar orqali boshqarilganligini ta'kidlab o'tadi.

Qonun ustuvorligini ta'minlash vazifalari 2022–2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining "Mamlakatda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish (13–20 maqsadlar)" deb nomlangan ustuvor yo'nalishida belgilab berilgan [3]. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi asosiy prinsip sifatida belgilangan. Xususan, Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi... Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar", – deb belgilab qo'yilgan [4]. Zero, har qanday demokratik islohotlar samarasi, tinchlik va taraqqiyotning asosiy garovi ham Konstitutsiya hamda qonun ustuvorligi ta'minlanishi bilan bevosita bog'liq.

Shu bilan birga huquqiy demokratiyaga asoslangan jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlovchi quyidagi asosiy shartlar ham g'oyat muhimdir. Bular:

birinchidan, hokimiyatlar bo'linishi prinsipining real joriy etilganligi. Bu prinsipga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari o'zlarining Konstitutsiyada va qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar. Konstitutsiya va qonunlarga nafaqat fuqarolar, uni qo'llovchi davlat idoralari va mansabdor shaxslar ham, shuningdek, qonunlarni yaratuvchi hokimiyat organi ham itoat etishga majbur. Hokimiyatlarning oqilona taqsimlanishi davlat tuzilmalarining samarali ishlashi, suiiste'mollarning bartaraf etilishi, inson huquq va erkinliklarining amalda ta'minlanishi, umuman, demokratiya va qonun ustuvorligining muhim garovidir;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasiga muvofiq: "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti: 1) fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlariga rioya etilishining, O'zbekiston Respublikasi suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligining kafilidir..." [5]. Shuningdek, Prezident o'z farmonlari va huquqiy qarorlari bilan Konstitutsiyaviy tamoyillarning qonunlarda mustahkamlangan qoidalarini hayotga to'la joriy etilishi uchun yo'l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi. Prezidentning o'zi qonunlarga qat'iy amal qilishi bilan davlat idoralari va mutasaddi shaxslar uchun ibrat ko'rsatib, ularni ham Konstitutsiya va qonunlarga og'ishmay rioya etishga safarbar etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 4-yanvarda "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida" farmoyish qabul qilinganligi jamiyatda aholining huquqiy bilimdonligi va madaniyatini oshirish bilan birga Konstitutsiyaning mavqei va nufuzini ko'tarishga qaratilgan siyosiy-huquqiy tadbirlardan biri bo'ldi;

uchinchidan, joriy qonunlar va barcha normativ-huquqiy aktlar Konstitutsiyaga tamomila mos va unga muvofiq yaratilishi lozim. Bu esa mamlakatda qonuniylik va huquqiy tartibot, taraqqiyot va barqarorlik hukm surishiga olib keladi. Asosiy Qonunimizning 16-moddasi ikkinchi bandida "...Birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas", deb qat'iy belgilab qo'yilgan [6]. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi ana shu muhim Konstitutsiyaviy-huquqiy prinsipga rioya etishni ta'minlashga intilib kelmoqda. Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash uchun alohida muhofaza mexanizmi bo'lishi taqozo etiladi. Bunday mexanizmning asosiy va markaziy bo'g'inini – Konstitutsiyaviy sud tashkil etadi. Konstitutsiyaviy sud o'z vazifalarini bajarishda mustaqildir va o'z faoliyatida faqat Konstitutsiya normalari hamda qoidalariga amal qiladi. Konstitutsiyaga sodiqlik, mustaqillik, oshkoralik va sudyalar

huquqlarining tengligi Konstitutsiyaviy sud faoliyatining asosiy tamoyillaridir;

to'rtinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlovchi va mustahkamlovchi vositalardan biri kodekslashtirishdir. Kodekslar huquq tarmog'ining bosh qonuni sifatida Konstitutsiya prinsiplarini rivojlantirish yo'lida yaratiladi va ular konstitutsiya, konstitutsiyaviy qonunlardan keyingi maqomni egallaydi. Kodekslar o'zining mantiqiy mukammalligi, pishiqligi, ichki barqarorligi, huquqiy qoidalarga amal qilinganligi tufayli hayotda tez va oson tatbiq etiladi;

beshinchidan, qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy omillari quyidagilardan iborat:– qonun chiqaruvchi jarayonni doimo demokratlashtirib borish;– insonparvar, adolatli va xalqchil qonunlar yaratish;– qonunning sifatini takomillashtirish, uning yuridik texnika nuqtayi nazaridan pishiq bo'lishiga erishish;– “qonunda taqiqlanmagan hamma narsa ruxsat etiladi” (fuqarolar uchun), “faqat qonunda mustahkamlangan narsalargagina ruxsat beriladi” (mansabdor shaxslar uchun) tamoyillariga qat'iy amal qilish;– yaqin yillar va istiqbolga mo'ljallangan qonunchilik strategiyasini yaratish;– qonunlar amal qilishi mexanizmini chuqur o'rganish;

oltinchidan, qonunosti va idoraviy hujjatlarga haddan tashqari ko'p murojaat qilishning oldini olish zarur. Bunday holat qonunning ahamiyatining pasayishiga, amaliyotda qonun o'rni idoraviy hujjatlarning kirib kelishiga olib keladi;

yettinchidan, qonunlarning barqaror va ustuvor bo'lishiga erishish; ularga tez-tez o'zgartirish kiritilishi qonunning nufuzini pasaytiradi;

sakkizinchidan, jinoiy jazolarni liberallashtirish qonun ustuvorligini ta'minlashning muhim shartidir;

to'qqizinchidan, Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlashda prokuror nazoratining o'rni beqiyosdir. Prokuratura organlari faoliyatida “Prokuratura to'g'risida”gi 2001 yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi qonunda ko'rsatilgan qonuniylik, adolatlilik, mustaqillik va oshkoralik tamoyillari asos bo'lib xizmat qiladi; o'ninchidan, davlat organlari va mansabdor shaxslarning jamoatchilik oldidagi hisobdorligini oshirish.

Shu o'rinda Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligini ta'minlashning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy va ruhiy kafolatlari ham mavjudligini unutmazlik lozim. Darhaqiqat, davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlashda siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy kafolatlar tizimining

shakllantirilishi muhim ahamiyatga ega. Parlament, mahalliy kengashlar va jamoatchilik nazorati fuqarolarning muhim konstitutsiyaviy huquqi bo'lib, davlat ishlarini boshqarishda ularning ishtirokini ta'minlashga, qonuniylikning yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qonun ustuvorligining yana bir muhim sharti – bu huquqiy kafolatlarning yaratilganligi hisoblanadi. Ya'ni, fuqarolar huquq va erkinliklarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishi hamda ularni ta'minlashga, amalga oshirishga qaratilgan boshqa huquqiy hujjatlarning mavjudligidir. Ana shu maqsadlarda, birgina Harakatlar strategiyasi doirasida 30 dan ortiq strategik va milliy dastur, 5 ta kodeks, 150 ta qonun, Prezidentning 2000 dan ziyod farmon va qarorlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ilmiy-texnik, sud-huquq, gumanitar va boshqa sohalarni rivojlantirish bo'yicha yana ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yana bir muhim kafolat – bu huquq va erkinliklarning iqtisodiy kafolati hisoblanadi. Bu – huquq va erkinliklarni iqtisodiy tomondan ta'minlash, ularning amalga oshishi uchun zarur moddiy-moliyaviy manbalarni vujudga keltirilishini anglatadi. Avvalo, Asosiy qonunimizning 36-moddasida: “Har bir shaxs mulkdor bo'lishga haqli...” – deb belgilab qo'yilgan. Qolaversa, fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlari Konstitutsiyamizning IX bobidagi 41–53-moddalarda o'z aksini topgan [7].

Xulosa qilib aytganda, tobora globallashib borayotgan hozirgi davr davlat boshqaruvida qonuniylikni ta'minlash va bu sohani tarkibiy jihatdan isloh qilish, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishning nazariy-ilmiy asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimlarni ishlab chiqishni hamda amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Binobarin, “Islahotlarimiz samarasi ko'p jihatdan 4 ta muhim omilga, ya'ni qonun ustuvorligini ta'minlash; korrupsiyaga qarshi qat'iy kurashish; institutsional salohiyatni yuksaltirish va kuchli demokratik institutlarni shakllantirishga bog'liq” [8].

**Xulosa va takliflar.** Qonun ustuvorligini ta'minlash borasida erishilgan natijaning ijobiy tomoni shundaki, 2021 yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston World Justice Projectning Qonun ustuvorligi indeksida 14 pog'onaga yuqorilab, 85-o'rinni egallagan bo'lsa, Jahon adolat loyihasi tomonidan tuzilgan qonun ustuvorligi reytingida O'zbekiston Respublikasi 142 davlat ichida 78-o'rinni saqlab qoldi [9].

#### ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023, 9-10-бетлар.
2. Ўша жойда. 9-11-бетлар.
3. “2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони (28.01.2022, ПФ-60-сон).
4. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., “Yuridik adabiyotlar publish”, 2023, 9-10-бетлар.
5. Ўша жойда. 70-бет.
6. Ўша жойда. 10-бет.
7. Ўша жойда. 24-30-бетлар.
8. <https://president.uz/uz/3321>
9. <https://xs.uz/uzkr/post/>